

QASHQADARYO VILOYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING HUDUDIIY JIHATLARI

Omonullayev Og‘abek Hamidullo o‘g‘li - Qarshi davlat universiteti talabasi, O‘zbekiston.

***Annotatsiya:** Ushbu ilmiy ishda O‘zbekistonning Qashqadaryo viloyatida erkin iqtisodiy zonalar*ni tashkil etish va rivojlantirish jarayonidagi muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda viloyatdagi mavjud erkin iqtisodiy zonalar, ularning faoliyatini samarali tashkil etishdagi to‘siqlar, infratuzilma muammolari, byurokratik to‘siqlar va investitsiya muhitining holati o‘rganiladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida Qashqadaryo viloyatida erkin iqtisodiy zonalarni samarali rivojlantirish uchun takliflar ishlab chiqiladi.

***Kalit so‘zlar:** Erkin iqtisodiy zonalar, Qashqadaryo viloyati, infratuzilma, investitsiya muhiti, byurokratiya, xalqaro tajriba.*

РЕГИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Омонуллаев Огабек Хамидуллоевич – студент Каршинского государственного университета, Узбекистан.

***Аннотация:** В данной научной работе анализируются проблемы в процессе создания и развития свободных экономических зон в Кашкадарьинской области Узбекистана. В исследовании рассматриваются существующие свободные экономические зоны в регионе, препятствия для эффективной организации их деятельности, проблемы инфраструктуры, бюрократические препоны и состояние инвестиционной среды. Также на основе международного опыта разрабатываются предложения по эффективному развитию свободных экономических зон в Кашкадарьинской области.*

***Ключевые слова:** Свободные экономические зоны, Кашкадарьинская область, инфраструктура, инвестиционная среда, бюрократия, международный опыт.*

REGIONAL ASPECTS OF IMPROVING THE ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN KASHKADARYA REGION

Omonullayev Ogabek Hamidullo o‘g‘li - student at Karshi State University, Uzbekistan.

***Annotation:** This scientific work analyzes the problems in the process of establishing and developing free economic zones in the Kashkadarya region of Uzbekistan. The study examines the existing free economic zones in the region, obstacles to the effective organization of their activities, infrastructure problems, bureaucratic obstacles and the state of the investment*

environment. Also, based on international experience, proposals are developed for the effective development of free economic zones in the Kashkadarya region.

Keywords: *Free economic zones, Kashkadarya region, infrastructure, investment environment, bureaucracy, international experience.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan farmonlar asosida Qashqadaryo viloyatida erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar belgilangan. Biroq, bu jarayonda bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu ilmiy ishda mazkur muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Adabiyotlar sharhi. Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish, investitsiyalarni jalb qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun samarali vosita hisoblanadi. Biroq ularning samarali faoliyat yuritishi uchun infratuzilma, qonunchilik, byurokratik to‘siqlar va investitsiya muhitining holati kabi omillar muhim ahamiyatga ega.

Erkin iqtisodiy zonalarning har xil turlari mavjud: erkin omborxonalar, erkin bojxona zonalari, ilmiy texnika zonalari. Ular AQShda texnoparklar, Yaponiyada texnopolislar deb ataladi. Shuningdek, maxsus iqtisodiy zonalar (asosan, eksportga ixtisoslashgan) ham mavjud. Dastlabki Erkin iqtisodiy zonalardan biri Irlandiyada „Shennon“ aeroportida (1959) tashkil etilgan edi. Keyinroq shunday zona Angliyadagi „DogAylend“ aeroportida paydo bo‘ldi. Ba’zi Erkin iqtisodiy zonalar ancha yirik hududlarda tashkil etiladi. Masalan Braziliyadagi Manaus, Xitoydagi maxsus iqtisodiy hudud „Shenjen“ va boshqalar shunday zonalardir.[8] „EIZlarda foyda me’yori o‘rtacha 25-30 %ni, Osiyodagi EIZlarda 35-40 %dan yuqorini tashkil etadi. Mazkur hududlarda kapital qo‘yilmalarning qoplanish muddati 2-3 martaga qisqa hisoblanadi. Odatda, kiritilgan mablag‘lar 3-3,5 yilda qoplansa, bunday qo‘yilma meyordagi hisoblanadi. Ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda EIZlar orqali ular iqtisodiyotiga jami xorijiy investitsiyalarning 30 %dan 80 %gacha qismi kirib keladi”[6].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari qo'llanilgan. Qashqadaryo viloyatidagi mavjud erkin iqtisodiy zonalar faoliyati o'rganilib, mavjud muammolar aniqlangan. Shuningdek, xalqaro tajribalar tahlil qilinib, ularni Qashqadaryo viloyatida qo'llash imkoniyatlari baholangan.

Qashqadaryo viloyatida dastlabki erkin iqtisodiy zona ya'ni "Chiroqchi" erkin iqtisodiy zonasi tashkil etish bo'yicha loyiha va takliflar o'rganildi va ushbu zona viloyatning ishlab chiqarish va resurs salohiyatini kompleks rivojlantirish, mineral xom ashyo va qishloq xo'jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha yuqori texnologik va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishga qaratilgan. Biroq, zona faoliyatini samarali tashkil etishda infratuzilma, byurokratik to'siqlar va investitsiya muhitining holati kabi muammolar mavjudligiga qaramay ushbu hududda EIZ tashkil qilindi.

Muammolar tahlili

Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish uchun birqancha muommolarni bartaraf etish lozim va ushbu muommolarga quyidagi omillarni kiritishimiz mumkun:

Erkin iqtisodiy zonalarda samarali faoliyat yuritish uchun zarur infratuzilma mavjud emasligi kuzatilmoqda. Elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv va boshqa kommunikatsiya tarmoqlari bilan barqaror ta'minlashda muammolar mavjud.

Erkin iqtisodiy zonalarda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar ma'muriy-buyruqbozlik va qog'ozbozlikdan holi emas. Bu esa investitsiya muhitini salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mavjud qonunchilik va amaliyotdagi kamchiliklar, shuningdek, byurokratik to'siqlar mavjud.


Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy zonalarini samarali tashkil etish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

Infratuzilma rivoji: Erkin iqtisodiy zonalarda zarur infratuzilma mavjud bo'lishi kerak.

Qonunchilik bazasi: Erkin iqtisodiy zonalarga oid aniq va barqaror qonunchilik bazasi yaratilishi zarur.


Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish: Ma'muriy-buyruqbozlik va qog'ozbozlikni kamaytirish lozim.

Investitsiya muhitini yaxshilash: Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish zarur.



1-rasm. Qashqadaryo viloyati bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida tuman (shahar)lar ulushi (%da) (2022-y).[7]

Viloyatda investitsiyalar o'zlashtirilishida keskin differentsiallik saqlanib qolgan. Xususan, kiritilgan investitsiyalarning 70,8 foizi viloyatning 4 ta hududi - G'uzor tumani (26,7 %), Muborak tumani (15,6 %), Kitob tumani (15,6 %) va Qarshi shahri (12,9 %) hissasiga to'g'ri kelgan. Aksincha, Yakkabog' tumani (1,8 %), Shahrisabz tumani (1,6 %), Dehqonobod tumani (1,4 %), Kasbi tumani (1,4 %), Chiroqchi tumani (1,3 %), Qamashi tumani (1,2 %) va Shahrisabz shahri (0,6%) ga investitsiyalar oqimining pastligi kuzatilgan.



2-rasm. Qashqadaryo viloyatining 2022 yil yanvar-sentyabr oylaridagi investitsiya ko'rsatkichlari dinamikasi

Takliflar

Barchamizga ma'lumki, chetdan kapital mablag'lar qanchalik ko'p kirsam bu hududning iqtisodiy salohiyati ham tezda yuksala boradi. Mavzu doirasida viloyatda to'laonli EIZ tashkil qilish uchun kompleks yondashmoq darkor, binobarin tanlangan hududning rivojlangan shahar yoki katta magistral yo'llar bilan chegaradoshligi va aynan mehnat resurslar bilan yaxshi ta'minlangan bo'lishi kerak, yuqoridagi talablarga viloyatning ko'pgina tumanlari mos keladi, ammo tabiiy sharoit borasida esa birqancha muommolar yuzaga kelishini ko'rishimiz mumkin. EIZlar uchun bir qancha yirik korxonalar qurish lozim bo'ladi va eng dolzarb resurs bo'lgan suv tanqisligi bo'lmasligi kerak, tahlillarimizga ko'ra bu muommoga duch kelmaslik uchun Kitob va Shahrisabz tumanlari eng ma'qul hududlar hisoblanadi, misol qilib aytadigan bo'lsak birgina Kitob tumaning o'zida 2022-yil 1-fevral holati bo'yicha tumanda ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni 2710 tani tashkil etgan [7]. Shuningdek tuman viloyat miqyosida transport sohasida yuqori o'rinlardan joy olgan, masalan, 2022-yil hisobiga ko'ra viloyatda tashilgan yuk aylanmasi umumiy hajmining 8,5 foizini (128,2 mln.tonna) tashkil etib, Qarshi shahridan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi[9].

Ayni shu hududni hukumat tomonidan xo‘jalik va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun imtiyozli soliq, moliya, huquqiy sharoitlar joriy qilinadigan makon sifatida ko‘rish mumkin. Xorijiy va mahalliy tadbirkorlarni jalb etish maqsadlarida zarur ishlab chiqarish va ish yuritish infratuzilmasi barpo etilsa bu hududdan jahon bozoriga mahsulotlar chiqarish va eng muhimi yurtimiz iqtisodiyotiga katta mablag‘lar kiritish imkoni yaratiladi.

Tumanda to‘laqonli jahon bozoriga raqobatdosh mahsulotlar yetqazi beraoladigan erkin iqtisodiy zonalar yaratish uchun to‘siq bo‘la oladigan qator muommolar mavjud, misol tariqasida quyidagilarni ko‘rsata olamiz.

Infratuzilmani rivojlantirish: Erkin iqtisodiy zonalarda zarur infratuzilma, jumladan, xizmat ko‘rsatish sohasidagi ishlab chiqarish infratuzilmasi (yuk tashish transporti, elektr va issiqlik ta‘minoti, yo‘l xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, ombor xo‘jaligi, ilmiy konstruktorlik xizmati, axborot xizmati va boshqalar) va ijtimoiy-maishiy infratuzilma (maorif, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, maishiy xizmat va boshqalar)ni rivojlantirish lozim.

Qonunchilikni takomillashtirish: Erkin iqtisodiy zonalarga oid qonunchilikni takomillashtirish va uni barqarorlashtirish zarur.

Byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish: Ma‘muriy-buyruqbozlik va qog‘ozbozlikni kamaytirish uchun elektron xizmatlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish lozim.

Investitsiya muhitini yaxshilash: Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq imtiyozlari, bojxona imtiyozlari va boshqa rag‘batlantirish chora-tadbirlarini ko‘rish zarur.

Xulosa

Qashqadaryo viloyatida erkin iqtisodiy zonalarini samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun infratuzilma, qonunchilik, byurokratik to‘siqlar va investitsiya muhitining holatini yaxshilash zarur. Xalqaro tajribalar asosida taklif etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali viloyatda erkin iqtisodiy zonalarining samarali faoliyatini ta‘minlash mumkin. Ko‘rsatilgan hududda barcha amaliyotlar (yer

ajratish, firma va kompaniyalarni tashkil etish, chegaradan yuklarni, tovarlarni olib kirish va olib chiqish, boj to'lovlari, soliq to'lovlari bo'yicha imtiyozlar, qaysi valyuta yoki valyutalar to'lov vositasini o'tashi, hududni boshqarish tartibi va boshqalar) qabul qilingan qoidalar asosida tezkorlik bilan bajarilgan holatdagina erkin iqtisodiy zonalar barpo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Chiroqchi erkin iqtisodiy zonasini faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2020 y., 09/20/267/0536-son.
2. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish va boshqarishning xorijiy tajribasi. IlmiyBaza. 2021.
3. Avdokushin G.F. Mejdunarodno-ekonomicheskie otnosheni. Moskva: Iqtisodiyot nashriyoti. 2004.
4. Mirzalieva S. Erkin iqtisodiy zonalar asosiy yo'nalishlari va tamoyillari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. 1999.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. PF-4853-son.26.10.2016..
6. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni.
7. Qurbonov P. R., Safarov I. B. Ziyorat turizmining iqtisodiy geografik jihatlarini //Экономика и социум. – 2025. – №. 3-1 (130). – С. 357-362.
8. Safarov I. B., Husenov J. Q. O'zbekistonda rekreatsion salohiyatini oshirishda gat texnologiyalarini o'rni //Экономика и социум. – 2025. – №. 3-2 (130). – С. 241-245.
9. Navotova D.I. Theoretical and methodological aspects of resources of land resources in agriculture//Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. November, 2022. – P. 40-44
10. Навотова Д.И. Қашкадарё вилояти қишлоқ хўжалиги географияси ва уни карталаштиришнинг баъзи масалалари// Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. №3 (94), 2022. –721-725 с.
11. Навотова Д.И. Географические особенности использования зарубежного опыта использования земельных ресурсов в хозяйственных хозяйствах// Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. №4 (95), 2022. –198-202 с.

12. Navotova D.I. Internal Differences In The Use Of Land Resources In The Agriculture Of Kashkadarya Region// Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16. Belgiya. 2023. P.100-104
13. <https://review.uz/uz/post/qashqadaryo-viloyatining-2022-yilning-yanvar-mart-oylaridagi-investitsiya-ko'rsatkichlari-tahlili>
14. https://uz.wikipedia.org/wiki/Erkin_iqtisodiy_zonalar
15. <https://qashstat.uz/uploads/press23/DM-PR-UZ-12-2023.pdf>
16. <https://review.uz/uz/post/qashqadaryo-viloyatining-2022-yil-yanvar-sentyabr-oylaridagi-investitsiya-korsatkichlari-tahlili>